

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Xorijiy tillar fakulteti fransuz tili va adabiyoti kafedrası

011-24 guruh talabasi XOLIQOVA SITORAning

**“5120100 Француз тили” таълим йўналиши бўйича бакалавр
даражасини олиш учун**

**“HOZIRGI ZAMON FRANSUZ TILIDA
ANIQLOVCHI**

VA UNING IFODA VOSITALARI”

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : _____k.o’qit. F.Bo’riyeva.

“Ҳимояга тавсия этилди”

Факультет декани:

_____ф.ф.н. А.Аликулов
“ ” _____2015йил

Qarshi-2015yil

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI MUAMMOSI

1.1. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya sifatida	8
---	---

1.2. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasi	12
---	----

II BOB. FRANSUZ TILIDA ANIQLOVCHI VA UNING IFODA VOSITALARI

2.1. Aniqlovchi gapning tobe bo'laklaridan biri sifatida	21
--	----

2.2. Ot bilan ifodalangan aniqlovchi	27
--	----

2.3. Sifat bilan ifodalangan aniqlovchi	29
---	----

2.4. Sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchi	36
---	----

2.5. Boshqa vositalar orqali ifodalangan aniqlovchi (son, infinitiv, ravish, so'z birikmasi va gap orqali)	39
--	----

X U L O S A	48
--------------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	54
---	-----------

KIRISH

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa yoshlarning jahon hamjamiyatida o'ziga xos o'rin egallashga intilayotganini ko'rsatadi. Xalqimizning chet el mamlakatlari bilan hamkorlikda xorijiy tillarni mukammal o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa fransuz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan – kunga ortib bormoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi gaplari fikrimiz isbotidir: “O'zbek bolasiga chet tillarning ajib dunyosiga bimalol kirishi uchun imkoniyatlarini to'liq ochib berishimiz darkor. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'ranish milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak”¹.

Yurtboshimiz ta'lim tizimi to'g'risida ko'plab fikrlar bildirib o'tadi: “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga etkazish xalq xo'jaligida mutaxassislarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir. Oliy o'quv yurtini isloh qilayotganda, ularni boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlash zarur o'z domlalarimiz bilan cheklanib qolmay, chetdan ham domlalar chiqarishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Chet davlatlardagi o'quv yurtlari bilan birlashgan ilmiy kengashlar tuzish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. O'z – o'zini el ishiga bag'ishlangan, inson tarbiyasiga jon tikkan oliy janob o'qituvchilarni, mo'tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko'taramiz” – deb ta'kidlagan.

Prezidentimiz, ayniqsa yoshlarni tarbiyasiga katta e'tibor bermoqda, buni quyidagi jumlar bilan izohlash mumkin: “Bilimga chanqoq iste'dodli

¹ I.A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2000 15, 20, 188-bet.

yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir. Biz o'z iste'dodli bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak. Aqliy zakovat va ruhiy – ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir”.¹

Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, fransuz tilini har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda fransuz tilida aniqlovchi va uning ifoda vositalari mavzusining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuning dolzarbligi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi fransuz tilida aniqlovchining sintaktik va struktur jihatdan tavsiflashdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Tilning sintaktik qatlamiga mansub aniqlovchi va uning ifoda vositalarini fransuz tili misolida ko'rib chiqish fransuz grammatikasidagi aniqlovchi hodisasini chuqur o'rganishga, unga xos shakily tuzilish va mohiyatni tavsiflashga, qolaversa, ularni badiiy matnlarda o'qib tushunish va tahlil qilish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda fransuz grammatikasiga doir muammolar avvalambor, L. Tenier, V.G. Gak, E.A. Referovskaya, A.K Vasileva, T.Y. Nikolskaya, E.K. Goldenberg, L.I. Iliya, M.Arrive, F.Godet, M.Galmishlar tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Ayniqsa grammatikaning sintaksis bo'limi va gap bo'laklarining o'ziga xos grammatik va sintaktik xususiyatlari batafsil ishlab chiqilgan. Biroq, bizning tadqiqot ishimiz bu xususidagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar, tushuntirishlar va tahlil orqali aniqlovchi va uning ifoda vositalariga xos xususiyatlarni ma'lum bir strukturaga solgan holda amaliy

¹ I.A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2000 15, 20, 188-bet.

tarzda izohlash bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda aniqlovchining struktur jihatdan turlari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad fransuz tilidagi aniqlovchi va uning ifoda vositalarining sintaktik va struktur tavsifi va ularning talqinidan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

- fransuz grammatikasiga xos gap bo'laklarining asosiy mohiyatini namoyon etish;
- fransuz tili gap bo'laklari o'rtasida aniqlovchi va uning ifoda vositalari tutgan o'rnini ochib berish;
- ot, sifat, fe'llar, sifatdosh va predloglarning tilda aniqlovchi vazifasida qo'llanadigan asosiy vositalar ekanligini va ularning aniqlovchilarga xos xususiyatini ko'rsatuvchi asosiy manba ekanligini namoyon etish;
- fransuz tilida aniqlovchining asosiy xususiyatlarini gaplarni tahlil qilish orqali tavsiflash;
- fransuz tilida aniqlovchi va uning ifoda vositalariga xos struktur – semantik, sintaktik va grammatik kabi ichki tuzilishini namoyon etish.

Tadqiqot obekti va predmeti. Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri hisoblashgan fransuz grammatikasidagi gap bo'laklari muammosi tadqiqot obektini tashkil etsa, undagi aynan aniqlovchi masalasi esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Tilshunoslikning grammatika va sintaktika borasidagi nazariy yo'nalishlar hamda L. Tenier, V.G. Gak, E.A. Referovskaya, A.K Vasileva, T.Y. Nikolskaya, E.K. Goldenberg, L.I. Iliya, M.Arrive, F.Godet, M.Galmish singari tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy va distributiv tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iborat:

- Gap bo'laklari nazariyasi tilshunoslikda eng dolzarb muammolardan biri sifatida;
- Ikkinchi darajali bo'laklardan biri aniqlovchi va uning fransuzcha gaplar tarkibida tutgan o'rni o'ziga xos strukturali tuzilishiga ko'ra amalga oshadi;
- Aniqlovchi va uning ifoda vositalari fransuz tili tizimida xilma-xillikni tashkil etadi ;
- Asosiy so'z turkumlari funksiyasida keladigan ot, sifat, fe'l, sifatdash va predloglar aniqlovchi vazifasida qo'llaniladigan asosiy vositalardir;
- Fransuz tilida aniqlovchi va uning ifoda vositalari struktur, sintaktik, morfologik va grammatik kabi ichki sistematik tuzilishga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Gap bo'laklari sistemasida ikkinchi darajali bo'laklar tarkibiga kiruvchi aniqlovchi va uning ifoda vositalari yasallishidagi struktur, sintaktik va morfologik qonuniyatlarni aniqlashga yordam beradigan nazariy va amaliy grammatika tavsifiga hissa qo'shildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Gap bo'laklarining sistemasida aniqlovchi yasallishining struktur, sintaktik va funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan fikrlar umumlashtirildi. Xususan, bitiruv malakaviy ishida gap bo'laklarida aniqlovchi shakllariga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem ko'rsatkichlar va grammatik tuzilishlar tavsiflandi, aniqlovchining o'ziga xos xilma – xilligi namoyon etildi.

BMIIdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini o'qitishda, qo'laversa, chet tillarini o'qitish va o'rganish jaroyonlarida

ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, aniqlovchilarning struktur-modellari darsning mazmunli va qiziqarli o'tish uchun ham ancha samarali bo'lib hisoblanadi va ushbu bitiruv malakaviy ish natijalaridan fransuz tili amaliy va nazariy grammatikalari fanidan ma'ruzalar matni yaratishda va ma'ruzalar o'qish jarayonida ham foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi qo'yilgan vazifalarning ketma – ket izchilligiga asoslanib, u kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI MUAMMOSI

1.1. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya sifatida

Hozirgi zamon tilshunosligida gap bo'laklari muammosi haqida to'xtalsak, avvalo til tuzilishi, umuman tilshunoslikdagi muammolarga to'xtalishimiz lozim.

Hozirgi davrda fransuz tilining barcha sathlari bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Morfologiya va sintaksis grammatikaning o'zaro bo'langan ikki bo'limi sanaladi. Grammatikaning bu ikki bo'limi, avvalo, predmetlariga ko'ra farqlanadi.

Sintaksis, so'z shakllarining bog'lanish qoidalarini va tarkibida bu qoidalar ro'yobga chiqadigan bir butunlikni – gapni o'rganadi. Anglashiladiki, morfologik birlik bo'lgan so'zning shakli ham sintaksis uchun ahamiyatlidir. Lekin faqat so'zning boshqa shakllari bilan aloqasi va sintaktik birlik ichida uning bir qismi sifatida bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridagina sintaktik qimmatga ega bo'ladi.

Nutqning axborot tashuvchi eng kichik birligi va shunday birliklarning umumlashgan namunasi gapdir. Demak, sintaktik sathning asosiy birligi va sintaksisning asosiy o'rganish obekti gap hisoblanadi.

Rus tilshunosi V.V.Vinogradov fikriga ko'ra, faqat so'z birikmasi va gapgina emas, balki qo'shma gap ham alohida sintaktik birlik sifatida tan olinadi. Bu qarashga muvofiq, sintaksis uch birlik: so'z birikmasi, gap va qo'shma gap haqidagi ta'limotdir. Gap bo'laklari so'z birikmasi doirasida yoki gap doirasida o'rganiladi.¹

Gap bir butunlik sifatida gap bo'laklaridan va so'z birliklaridan tashkil topadi. Demak, gapning ichki tuzilish birligi gap bo'laklari va so'z birikmalaridir. Gap bo'lagi butun bir gap mazmunini ifodalashda ma'lum

¹ Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. –М.,1947 93 с.

mazmuniy ahamiyatga ega bo'lgan bu vazifaga muvofiq grammatik shakllangan mustaqil so'zlardan ifodalanadi.

Sintaksisning o'rganish obekti uchta va shunga muvofiq, sintaksis ham uch turga bo'linadi:

- 1) So'z birikmasi sintaksisi;
- 2) Gap sintaksisi;
- 3) Matn sintaksisi.

Gap bo'lagi ikki va undan ortiq marfemalarning sintagmatik munosabatidan tashlik topgan ma'lum sintaktik vaziyatdagi butunlik – so'z shakli sanaladi.

XIX asrga qadar dunyo tilshunosligida sintaksisning asosiy o'rganish obekti gap hisoblanadi. Uning tarkibidagi so'zlarning o'zaro aloqasi gap bo'laklari sifatida o'rganiladi.

Shuning uchun sintaksis gap va uning bo'laklari haqidagi ta'limot sifatida e'tirof etildi. Sintaksisning asosiy birligi gapdir. Gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishning asosiy vositasi, muayyan tilning qunun – qoidalari asosida shakllangan sintaktik birligidir. Gapning asosiy belgisi ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasidir. Til kishilar o'rtasida eng muhim fikr ifodalash vositasi ekan, demak, tilning bu vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita gap hisoblanadi. So'z ham, so'z birikmasi ham bu vazifani bajara olmaydi.

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat bo'lgan bir butunlikdir. Gapning bu ikki tomoni o'zaro dialektik aloqada bo'lsa ham, bir butunni tashkil etuvchi alohida – alohida tuzilmalar bo'lganligi uchun o'zlariga xos ma'lum xususiyatlarga ham ega. Avvalo, bu ikki tuzilma o'zlarining tuzilishi birliklari bilan ham farq qiladi. Shuning uchun ham har qaysi tuzilmaning birliklarini alohida – alohida o'rganish va bu ikki tuzilma birliklari o'rtasidagi munosabatni aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir gapda ma'lum obektiv mazmun ma'lum moddiy vositalar – sintaktik shakllar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu moddiy ifodalanish tomoni uning sintaktik tuzilishi hisoblanadi.

Sintaktik tuzilish ham o'zaro munosabatda bo'lgan bir necha unsurlardan tashkil topgan bir butunlikdir. Sintaktik tuzilishning unsurlari an'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari termini bilan nomlanadi. Lekin sintaktik tuzilish tarkibidagi barcha sintaktik shakllar gap bo'laklari tarkibiga kiritilmaydi. An'anaviy tilshunoslikda sintaktik shalning tobe aloqaga kirishi uning gap bo'lagi hisoblanishining bosh mezoni sanaladi.

Gap bo'lagi ikki va undan ortiq marfemalarning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan ma'lum sintaktik vaziyatdagi butunlik – so'z shakli sanaladi. Gap bo'lagi ma'lum sintaktik shaklning shakliy sintagmatik munosabatdagi vaziyatiga qarab belgilanadi: ega vaziyati, kesim vaziyati, aniqlovchi vaziyati va boshqalar. Gap bo'laklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni to'la qamrab olmas ekan, demak, gapni bo'laklarga gap bo'laklari rubrikasi ostida ajratish yetarli asosga ega emas. Shuning uchun ham tilshunoslikda bu masala ham eng munozarali masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi.

Muayyan so'z shaklining boshqa so'z shaklga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so'z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so'z – shakllar juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi. Ko'rinadiki, tobe qismning vaziyati aniq, hokim qismning vaziyati esa noaniq bo'ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi halqasida aniqlanadi.

Gap bo'lagi ham til birligi sifatida shakl va mazmun qarama – qarshiligi va birligidan tashkil topgan murakkab qurilmadir.

Gap bo'lagining shakl va mazmun tomoni ham, o'z navbatida, ma'lum unsurlarga ega. Shuning uchun gap bo'laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishlarini hamda ular o'rtasidagi munosabatni belgilash nazariy tilshunoslikning muhim vazifasidir.

Har qanday gap bo'lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama – qarshiligi va birligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin morfologik shakl asosida hosil bo'lgan sintaktik shakl sifat jihatdan tamoman farqli bo'lgan yangi va unga nisbatan yuqori shakldir. Bir morfologik shakl bir necha sintaktik shaklga asos bo'lganidek, bir necha morfologik shakl bir sintaktik shaklga asos bo'lishi ham mumkin. Sintaktik shakl morfologik shakl asosida vujudga kelgan yuqoriroq birlik ekan, sintaksis uchun sintaktik shakl belgilovchi rol o'ynaydi. Sintaktik shakl birlashtiruvchilik, morfologik shakl esa farqlovchilik xususiyatiga ega. Ya'ni ma'lum shakl bir necha morfologik shakllarni birlashtirish asosida maydonga keladi. Ayni paytda shu sintaktik shaklning ichki farqli belgilarini aniqlashda uning qanday morfologik shaklga tayanganiga asoslaniladi. Sintaktik shakl morfologik shakl asosida vujudga kelganligi uchun morfologik shakl sintaktik shaklning ichki mundarijasini belgilaydi. Morfologik shakl sintaktik shakl ichida o'zining vazifasini bajaradi. Demak, morfologik shaklning vazifa olish sharoiti sintaktik shakldir. O'z navbatida, sintaktik shaklning vazifa olish sharoiti jumla sanalib, jumlaning mundarijasini sintaktik shakllar belgilaydi.

Gap bo'lagi mazmuniy jihatdan ham bir necha unsurlardan tashkil topgan murakkab butunlikdir: u, bir tomondan borliqdagi narsa va hodisalar, harakat holatlar va ular o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi, ikkinchi tomondan, gap tarkibida ishtirok etib boshqa ma'noda munosabatda bo'ladi. Bu ma'nolar turli mualliflar tomonidan turlicha nomlanadi.¹

¹ Гак. В. Г Теоретическая грамматика французского языка - Москва: ВШ, 1986. 64с.

Gap bo'laklarining birinchi ma'nosi obektiv borliq bilan bog'lansa, obektiv borliq unsurlarining va bu unsurlar o'rtasidagi munosabatning inson ongida aks etishini ko'rsatsa, ikkinchi ma'nosi gapning ma'no unsurlari munosabati zanjirida uning qaysi vazifada kelishini aks ettiradi.

Biz bu ikki ma'noning birinchisi uchun morfologik ma'no, ikkinchisi uchun esa sintaktik ma'no terminlarini qo'llaymiz.

Sintaktik ma'no bilan morfologik ma'no o'zaro bog'liq, biri ikkinchisiz yashay olmasa ham, lekin ular bir hodisaning ikki tomoni bo'lganligidan har qaysisi butun ichida ma'lum mustaqillikka ega bo'ladi. Shuning uchun ham bu ikki ma'no o'rtasida qarama – qarshilik mavjud bo'ladi. Sintaktik ma'no morfologik ma'noga nisbatan umumiylik bo'lsa, morfologik ma'no sintaktik ma'no nisbatan xususiylik bo'ladi.

Sintaktik shakl uchun morfologik ma'nolarni birlashtiruvchi ma'no bo'lgan sintaktik ma'no muhim hisoblanadi. Morfologik ma'no esa sintaktik ma'nolarning farqli belgilarini ko'rsatishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

1.2. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasi

Gap bo'laklari lisoniy belgi sifatida shakl va ma'no birligidan iborat. Gap bo'lagining o'zi ikkilangan xususiyatga ega bo'lish bilan birga uning tarkibidan shakl va ma'no unsurlari ham ikkilangandir. Gap bo'lagi shakli morfologik va sintaktik shakl birligidan tashkil topgani kabi, uning ma'nosi ham morfologik va sintaktik ma'no birligidan tashkil topgan.

Har qanday gap bo'lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama – qarshiligi va birligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin morfologik shakl asosida hosil bo'lgan sintaktik shakl sifat jihatdan tamoman farqli bo'lgan yangi va unga nisbatan yuqori shakldir. Bir morfologik shakl bir necha sintaktik shaklga asos bo'lganidek bir necha morfologik shakl bir sintaktik shaklga asos bo'lish ham mumkin. Sintaktik

shakl morfologik shakl asosida vujudga kelgan yuqoriroq birlik ekan, sintaksis uchun sintaktik shakl belgilovchi rol o'ynaydi.

Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim bo'laklarni gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu bo'laklarni gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliy tomondan ham, mazmun tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida yetarli rol o'ynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning ahborot hajmini kengaytiradi. Shunga muvofiq, gap bo'laklari an'anaviy tilshunoslikda ikki darajaga bo'linadi:


a) bosh bo'laklar; b) ikkinchi darajali bo'laklar.

Gapning tuzilish asosini tashkil etgan gap bo'laklari bosh bo'laklar hisoblanadi. Gapning tuzilish asosini ega va kesim munosabati tashkil etadi. Ega o'ziga oid aniqlovchilar bilan kengayib, ega vaziyatida kesim bilan sintagmatik munosabatda bo'ladi.

Gap bo'laklari (*les termes de la proposition*) gapning uzviy qismi sifatida maydonga kelgan sintaktik kategoriyadir. Ular gap mustaqil so'zlar va so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Barcha tillardagi kabi gap bo'laklari fransuz tilida ham ikkiga bo'linadi: boshqa bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklarga ega va kesim ikkinchi darajali bo'laklarga esa to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kiradi.

Biz bu qoidalarni jadval ko'rinishida tushuntirib berishga harakat qilamiz. Quyidagi jadvalda biz gap bo'laklari va uning turlarini ko'rsatib beramiz.

GAP BO'LAKLARI (les termes de la proposition)



Ega (*le sujet*) fransuz tilida har qanday gapda mavjud bo'lishi shart bo'lgan bosh bo'laklardan biridir. Fe'llarning shaxssiz shakli bilan ifodalangan gaplarda ega ikkiga bo'linishi mumkin: grammatik ega (*le sujet grammatical*) va mantiqiy ega (*le sujet logique*). Gapda ega ko'pincha kesimdan oldin ketma – ket tarzda keladi. Masalan: *Dominique a fabriqué un avion*. Lekin ayrim hollarda ega kesimdan biroz ajratilgan holda ham kelishi mumkin: Masalan: *Dominique, de ses propres mains, a fabriqué un avion*. Bunday hollarda ega fe'ldan ajratilgan ega (*le sujet séparé du verbe*) deb ataladi.

Kesim (*le verbe*) egaga tobe bo'lib, uning harakatini, holatini va boshqa xilma – xil belgilarini hukm yo'li bilan ifodalaydigan ikkinchi bosh bo'lakdir. U ifodalanishi va mazmuniga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: 1) sodda fe'l kesim (*le verbe simple*); ega + fe'lining oddiy shaxsli shakli yoki murakkab zamon shakli, 2) murakkab fe'l kesim (*le verbe composé*), 3) murakkab ot kesim (*le verbe nominal composé*): ega + être fe'lining shaxsli shakli +sifat (ot, son).

Ikkinchi darajali bo'laklar. To'ldiruvchi (*le complément*) harakatining ta'siri bevosita o'zaro o'tgan predmetni, harakatning bajarilishida vosita bo'lgan obektni bildiradi. Hozirgi zamon fransuz tilida to'ldiruvchi uchga bo'linadi: vositasiz to'ldiruvchi (*le complément d'objet direct*), vositali to'ldiruvchi (*le complément d'objet indirect*) va ikkinchi darajali to'ldiruvchi (*le complément d'objet second*). Vositasiz to'ldiruvchi o'timli fe'llar bilan birga keladi va fe'ldan anglashilayotgan harakat to'ldiruvchiga to'g'ridan – to'g'ri hech qanday predlogsiz o'tadi.¹

Masalan: *Il aime sa soeur*

↓ ↓ ↓

sujet verbe COD

Lekin vositasiz to'ldiruvchilarning predlogli ko'rinishi ham mavjud bo'lib, ular qisman artikllar (*l'articles partitifs*) bilan ifodalanadi:

Masalan: *Il a apporté des livres*

¹ Suvonova N.N Matn tahlili. Samarqand: SamDCHTI, 2010. 22 b.

↓ ↓ ↓

sujet verbe COD

Vositasiz to'ldiruvchilar gapda quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Otlar bilan: *Robert fume un sigare.*
2. So'z birikmasi bilan: *Pierre fume de petits cigares du Brésil.*
3. Infinitiv bilan: *Vanessa aime lire.*
4. To'ldiruvchili olmosh bilan: *Elle les a rencontrés.*
5. Ko'rsatish olmoshi bilan: *Il prend celui – ci.*
6. Egalik olmoshi bilan: *J'ai perdu mon crayon et je prends le tien.*
7. Noaniq olmosh bilan: *Il n'a vu rien.*
8. Gap bilan: *Les hirondelles attendent que l'automne arrive.*

Vositali to'ldiruvchi doimo à yoki de predlog bilan birga keladi. Masalan:

Mon père pense à son travail.

↓ ↓ ↓

sujet verbe COD

Luce parle de ses vacances

↓ ↓ ↓

sujet verbe COD

Faqat à va de predloglarini o'rin – joy yoki vaqt ma'nosida kelganda hol bo'lib kelishini yodda saqlash lozim:

Masalan: *Mon frère va à Paris*

↓ ↓ ↓

sujet verbe COD

Ma mère revient de Paris

↓ ↓ ↓

sujet verbe COD

To'ldiruvchining yangi turi hisoblangan ikkinchi darajali to'ldiruvchi gapda vositasiz to'ldiruvchi mavjud bo'lsagina paydo bo'ladi. Ya'ni u ikki karra

to'ldiruvchili fe'llar (*les verbes à double complément d'objet*) yordamida namoyon bo'ladi. Bunday fe'llar bermoq (*donner, annoncer, apporter, etc.*), olmoq (*prendre, acheter, obtenir, etc.*), aytmoq (*dire, apprendre, crier, demander, etc.*) ma'nosini anglatuvchi fe'llar kiradi. Shuningdek, ular à va de gohida pour predlogi asosida yasaladi.

Masalan: *Ma soeure donne des roses à sa mère*

↓ ↓ ↓ ↓

sujet verbe COD COS

Pierre reçoit une lettres de Michel

↓ ↓ ↓ ↓

sujet verbe COD COS

Ikkinchi darajali to'ldiruvchilar uchun gap à predlogi faqat – ga (o'rin – joy va vaqt ma'nosidan tashqari) de predlogi faqat – dan (o'rin – joy va vaqt ma'nosidan tashqari) ma'nosida kelishi shart. Yana shu narsaga e'tibor qilish lozim, ikkinchi darajali to'ldiruvchilar doimo jonli ot bilan ifodalanadi. Biroq ayrim hollardagina ikkinchi darajali to'ldiruvchilar de predlogi bilan birga kelganda jonsiz ot bilan ifodalanishi mumkin:

Pierre revient sa mère de son retard

↓ ↓ ↓ ↓

sujet verbe COD COS

Ularning ifodalanish vositalari haqida to'xtaladigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ular ko'pincha jonli ot va to'ldiruvchili olmoshlar bilan ifodalandi. To'ldiruvchili olmoshlarning ham quyidagi turlari inobatga olinadi: me (menga), te (senga), lui (unga), nous (bizga), vous (sizga), leur (ularga).

Marie me donne des bonbons.

↓ ↓ ↓ ↓

sujet COS verbe COD

Hol (*le complément circonstanciel*) harakat va holatning bajarilish o'рни, payti, sababi, tarzi, maqsadi va shu kabilarni ko'rsatib, boshqa bo'lakka tobe bo'lib

keladi. U ifodalayotgan mazmunga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Uning bu turlari quyidagi oltita savolga mos keladi: qachon (*quand*)? qayerda (*où*)? qanday (*comment*)? nima bilan (*avec quoi*)? nima uchun (*pourquoi*)? qanday maqsadda (*dans quel but*)?. Endi holning shu turlarini misollar bilan ko'rib chiqamiz:

1. Payt holi (*le complément circonstanciel de temps*): *Il arrivera vers 5 heures.*

2. O'rin holi (*le complément circonstanciel de lieu*): *La bombe était déposée sous une voiture.*

3. Holat holi (*le complément circonstanciel de manière*): *Il mange avec délicatesse.*

4. Vositali holi (*le complément circonstanciel de moen*): *Il mange avec des convers en argent.*

5. Sabab holi (*le complément circonstanciel de cause*): *Il tremble de peur.*

6. Maqsad holi (*le complément circonstanciel de but*): *Il court pour malgrir.*

Fransuz tilida ikki darajali bo'laklardan to'ldiruvchi va hol gapdagi semantik xususiyatlariga ko'ra umumiy ikki katta guruhga bo'linadi: kesim to'ldiruvchisi (*le complément de verbe*) va gap to'ldiruvchisi (*le complément de phrase*). Kesim to'ldiruvchisi kesimni ifodalaydigan fe'lni to'ldirib kelsa, gap to'ldiruvchisi esa butun gapni to'ldirib keladi. Kesim to'ldiruvchisiga quyidagilar kiradi: 1)vositali to'ldiruvchi; 2) vositasiz to'ldiruvchi; 3) ikkinchi darajali to'ldiruvchi; 4) tushirib qoldirish mumkin bo'lmagan hollar kiradi. Bunday gap to'ldiruvchisiga esa faqat tushirib qoldirish mumkin bo'lgan hollar kiradi. Bundan ko'rinadiki, gap bo'laklaridan hol kesim to'ldiruvchi ham gap to'ldiruvchisi ham bo'la olishi mumkin ekan. Bunday hollarni bir – biridan farqlash uchun tushirib qoldirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: quyidagi gapga e'tibor qilaylik:

Pierre s'est marié à Paris

↓ ↓ ↓

sujet verbe CC (CPH)

Pierre habite à Paris

↓ ↓ ↓

sujet verbe CC (CV)

Bu gaplarning ikkalasi ham *à Paris* so'zi o'rin holi bo'lib kelmoqda. Lekin birinchisini tushirib qoldirish mumkin (*Pierre s'est marié*) ikkinchisini esa tushirib qoldirish mumkin emas (*Pierre habite à Paris*). Negaki, *Pierre habite* shaklidan hech narsa tushunib bo'lmaydi va go'yo gap noto'liqdek ko'rinadi.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda fransuz tiliga xos gap bo'laklari turlari va ularning o'ziga xos muammolari xususida fikr yuritishga harakat qildik. Yuqorida aytilgan barcha fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagi aniq xulosalarni keltirish maqsadga muvofiqdir:

1. Gap bo'laklari (*les termes de la proposition*) gapning uzviy qismi sifatida maydonga kelgan sintaktik kategoriyadir. Ular gap mustaqil so'zlar va so'z birikmalari bilan ifodalanadi.

2. Barcha tillardagi kabi gap bo'laklari fransuz tilida ham ikkiga bo'linadi: boshqa bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklarga ega va kesim ikkinchi darajali bo'laklarga esa to'ldiruvchi aniqllovchi va hol kiradi.

3. Gapning tuzilish asosini tashkil etgan gap bo'laklari bosh bo'laklar hisoblanadi. Gapning tuzilish asosini ega va kesim munosabati tashkil etadi. Ega o'ziga oid aniqllovchilar bilan kengayib, ega vaziyatida kesim bilan sintagmatik munosabatda bo'ladi.

4. Har qanday gap bo'lagi shakliy jihatdan moddiy asos va sintaktik vaziyat qarama – qarshiligi va birligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin morfologik shakl asosida hosil bo'lgan sintaktik shakl sifat jihatdan tamoman farqli bo'lgan yangi va unga nisbatan yuqori shakldir.

5. Bir morfologik shakl bir necha sintaktik shaklga asos bo'lganidek bir necha morfologik shakl bir sintaktik shaklga asos bo'lish ham mumkin. Sintaktik

shakl morfologik shakl asosida vujudga kelgan yuqoriroq birlik ekan, sintaksis uchun sintaktik shakl belgilovchi rol o'ynaydi.

6. Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim bo'laklarni gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu bo'laklarni gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliy tomondan ham, mazmun tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida yetarli rol o'ynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning ahborot hajmini kengaytiradi.

7. Gapning tuzilish asosini tashkil etgan gap bo'laklari bosh bo'laklar hisoblanadi. Gapning tuzilish asosini ega va kesim munosabati tashkil etadi. Ega o'ziga oid aniqlovchilar bilan kengayib, ega vaziyatida kesim bilan sintagmatik munosabatda bo'ladi.

II BOB. FRANSUZ TILIDA ANIQLOVCHI VA UNING IFODA VOSITALAR

2.1. Aniqlovchi gapning tobe bo'laklaridan biri sifatida

Aniqlovchi (*l'attribut*) predmetning belgisini, sifatini, miqdorini, xususiyatini, qarshiligini bildirib, ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalangan har qanday bo'laklarga bog'lanib keladi. Fransuz tilida aniqlovchilar o'z sintaktik xususiyatlariga ko'ra bir necha turga bo'linadi va ular turlicha nomlanadi.

Aniqlovchi gapning ikkinchi darajali bo'laklaridan biri bo'lib, u gaplarda ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalangan gap bo'laklarini, sifat va ularning belgilarini ko'rsatadi. Aniqlovchi o'zi aniqlab kelayotgan otga ergashib, undan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Shunga ko'ra, «prepozitiv» va «postpozitiv» kabi atamalarni aniqlovchi uchun qo'llaymiz.¹

Aniqlovchi ikkinchi darajali bo'laklarning alohida bir turidir. Gap strukturasida o'z tuzilishi bilan boshqa ikkinchi darajali bo'laklardan farq qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklardan to'ldiruvchi va hol fe'lga bog'lanib kelsa aniqlovchi otga bog'lanib keladi. To'ldiruvchi va hol gapda uning mustaqil bir bo'lagi sifatida odatda kesimga tobe bo'lib kelsa, aniqlovchi birikma tarkibida uning bir elementi sifatida egaga ham, kesimga ham, holga ham va hatto to'ldiruvchiga ham tobe bo'la oladi. Bir aniqlovchi ikkinchi aniqlovchiga tobe bo'lib kelishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, aniqlovchilar aniqlanmishga nisbatan postpozitiv yoki prepozitiv munosabatda bo'lishi mumkin. Aniqlovchilar prepozitiv holatda kelganda sifat, olmosh, son, ot, sifat-dosh so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Masalan: *un bon film*, *un capable enfant*. Prepozitiv aniqlovchilar esa faqat bitta so'z yoki so'z birikmasi orqali ifodalanishi mumkin. Fransuz tilida aniqlovchilar struktur jihatdan ko'plab turlarga bo'linadi. Fikrimiz isboti sifatida biz quyida 2-jadvalni berib o'tamiz.

¹ Гак. В. Г Теоретическая грамматика французского языка - Москва: . VIII, 1986. 85 с.

Postpozitiv holatda kelgan aniqlovchilar ham odatda sifat, holatni ifodalovchi so'zlar, otlarning yoki gerundiylarning predlogli guruhi, infinitiv va sifatdoshlar orqali ifodalanadi. Masalan: *un livre intéressant, un parole parlé*. Postpozitiv tarzda qo'llanilgan sifatlar esa gapda o'zlarining atributiv xususiyatlarini saqlagan holda predikativlik ottenkaga ega bo'ladi.

Holat kategoriyasiga ega bo'lgan so'zlar ham gapda aniqlovchi vazifasida kelishi va postpozitiv tarzda qo'llanilishi mumkin.

Olmosh va son so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'zlar ham gapda aniqlovchi bo'lib kelishi va prepozitiv tarzda qo'llanilishi mumkin. Ular aniqlovchilarning yordamchi funksiyasini amalga oshiradi. Bu funksiya xuddi artikllarning funksiyasiga o'xshash bo'lib, u morfologik, sintaktik, semantik funksiyalarni o'z ichiga oladi.¹

Predlogli aniqlovchilar fransuz tilida ko'pincha *de* predlogi orqali amalga oshadi. U gapda tegishlilik ma'nosini ifodalaydi. Bir qancha grammatik maktab vakillari bunday aniqlovchilarga qaratqich kelishigidagi otlarning muqobili deb qaraydilar. Bunday qarash noo'rindir albatta. Chunki, morfologiya so'z shakllarining o'zgarishini, sintaksis esa gap tuzilishini tahlil qiladi. Shuning uchun ham morfologik hodisa bilan sintaktik hodisani bir-biri bilan chalkashtirib yuborish mumkin emas.

Sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchilar gapda ko'pincha postpozitiv tarzda joylashishi mumkin. Prepozitiv tarzda qo'llaniladigan sifatdoshlar harakatga asoslangan belgini yoki sifat ma'nosiga juda yaqin bo'lgan ma'noni ifodalab keladi.

Postpozitiv tarzdagi atributiv sifatdoshlar so'z birikmasi tarkibida hokim bo'lak vazifasini o'taydi. Bunday holat ayrim maxsus texnik adabiyotlarda ko'plab uchraydi : *une loi adoptée, une page lu*.

¹ Bescherelle 3 La grammaire pour tous -Paris, 1990 -37 p.

Infinitiv bilan ifodalangan aniqlovchilar aniqlanmishga nisbatan doimo postpozitiv munosabatda bo'ladilar va modal ma'no kasb etadilar. Masalan: *l'heure de départ, une place à manger*

Fransuz tili grammatikasida ravish so'z turkumi bilan ifodalangan aniqlovchilar ham kamdan-kam hollarda uchrab turadi. Ular ham aniqlanmishga nisbatan postpozitiv munosabatda bo'lishi mumkin. Masalan, *Il va vers l'entrée de derrière.*

Ma'lumki, aniqlovchilar sifatlar bilan ifodalanadi. Agar sifatlar gapda *sifat + ot* yoki *ot + sifat* ko'rinishida namoyon bo'lsa, ular otning aniqlovchisi (*l'épithète*) hisoblanadi. Masalan: *une belle voiture* yoki *le pain sec.*¹

Agar sifat va otlar holatni anglatuvchi fe'llar (*être, devenir, paraître, sembler, demeurer, avoir l'aire, passer pour, être considéré comme, être traité de*) bilan birga kelsa faqat eganing aniqlovchisi (*l'attribut du sujet*) bo'lishi mumkin. Ular *être + sifat (yoki ot)* ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan: *La voiture est belle. Cet homme est un champion* sifat gapda nafaqat eganing aniqlovchisi, balki to'ldiruvchining aniqlovchisi (*l'attribut du complément*) bo'lishi ham mumkin. Bunda holatni bildiruvchi fe'llar emas, balki boshqa fe'llar (*croire, juger, faire, estimer, rendre, trouver, nommer, laisser, appeler*) ishtirok etadi.

Masalan: *Pierre a trouvé ton livre intéressant.*

Gap nafaqat sifatlar, balki sifat-doshlar ham aniqlovchi vazifasini bajarishi mumkin.

Agar otlar *ot + sifat-dosh* ko'rinishida kelsa, sifat-doshli ot (*l'apposition*) hisoblanadi. Masalan: *Le tableau accroché au mure est vert.*

Bundan tashqari, *de, à, en* predloglari ham gapda aniqlovchi hosil qilishda yordam beradi. U *ot + de (à, en) + ot* ko'rinishida namoyon bo'ladi va gapda otga

¹ Suvonova N.N Matn tahlili. Samarqand: SamDCHTI, 2010. 23 b.

aniqlik kiritib keladi va aniqlovchili to'ldiruvchi (*le complément déterminatif*) yoki otning to'ldiruvchisi (*le complément du nom*) deb ataladi.

Masalan: *Le machin de Pierre est cassé.*

Aniqlovchining yuqorida sanab o'tilgan turlari quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi:

1. Sifat bilan: *Il ferme la brochure d'un coup sec.*
2. Predlogli sifat bilan: *C'est à la deuxième porte à gauche.*
3. Son bilan: *Le livre est ouvert à la page vingt – sept.*
4. O'tgan zamon sifatdoshi bilan: *Il va vers le tableau accroché au mur.*
5. Hozirgi zamon sifatdoshi bilan: *Il regarde les nuages glissant sur le ciel.*
6. Predlogli (à yoki de) infinitiv bilan: *L'heure arriva de se coucher.*
7. Predlogli ravish bilan: *Il va vers l'entrée de derrière.*
8. Predlogsiz ravish bilan: *Il raconte sa vie là - bas.*
9. Ot bilan: *Une voix de femme l'éveilla.*
10. Gap bilan: *C'étaient des costumes de jeunes gens d'ilya longtemps.*

Aniqlovchi shaxs yoki predmetning belgisini anglatuvchi gap bo'lagi hisoblanadi. Aniqlovchi predmetning belgi xususiyati va sifatini anglatib, *quel? quelle? quels? quelles? (qanday?)* so'roqlariga javob bo'ladi. Biz yuqoridagi fikrlarni jadval ko'rinishida ham ko'rsatib o'tamiz ya'ni quyidagi 3-jadvalda aniqlovchining qanday vositalar yordamida ifodalanishini jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2.2. Ot bilan ifodalangan aniqlovchi

Bu ishimizda gap bo'laklariga kiruvchi ikkinchi darajali bo'laklarning alohida bir turi bo'lgan aniqlovchilar tahlil qilinadi. Ularni tahlil qilishda fransuz tilshunoslari va yirik tilshunos olimlarning fikrlariga suyangan holda o'rganish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun ham bu ishimizda aniqlovchining barcha ifoda vositalariga to'xtalib o'tamiz va ularni tahlil qilamiz. Bu ishimizda

Guy de Maupassant ning “*Notre coeur*”, Gao Xingjian ning “*La Montagne de l’Âme*”, N.M.Tabatnikova ning “*Le pe`re tranquille*”, Maurice Genevoix ning “*La dernière harde*”, Romain Rolland ning “*Pierre et Zuce*” asarlaridan foydalandik. Bu asarlardagi gaplarda aniqlovchining berilish hollarini, turlarini va ifoda vositalarini o’rganishni maqsad qilib qo’ydik. Shuning uchun ham, asarlardagi gaplarda aniqlovchining ifoda vositalari, turlarining qanday vositalar yordamida ifodalanilayotganligini ko’rsatish ishimizning asosiy tomonidir.

Tilshunoslikda aniqlovchining bir turi aniqlovchili to’ldiruvchi ya’ni *le complement déterminatif* turiga mansub ko’plab misollarni uchratishimiz mumkin. Aniqlovchining bu turini hosil qilishda gapda aniqlovchi *ot + de (à, en) + ot* ko’rinishida namoyon bo’ladi. Masalan:

1. *Tu te tournes vers elle pour lui dire que ce gars – là cest un pilleur de tombes*. (GXM.127)

Aniqki, albatta, ot aniqlovchi yoki predmetning to’ldiruvchisi vazifasini ifodalab keladi, lekin faqat aniqlovchi vazifasi sifat va ot oralig’idagi almashtirish imkonini beradi: *ce monsieur est commerçant/ médecin... / aimable/ compétent/ âgé*. Shu bilan birga ikkita kategoriyaga mansub bo’lgan leksik qismda ham ifodalanadi: *cette femme est une voleuse / cette femme est voleuse*.

Boshqa tomondan, fe’lning ot to’ldiruvchili sintagmasini to’g’ri hosil qilish uchun ot to’ldiruvchi biror determinativ (*le, ce, un, mon, plusieurs*) bilan birga sodir bo’lishi kerak. Ko’pincha grammatik olimlarning aytishicha ot aniqlovchi sifatning ma’nosini anglatishda ko’pincha determinantlarsiz ham kelishi mumkin: *cet homme est agent de police/ un agent de police*. Bu holda sifat ma’nosini o’zgartirib, otni ko’rsatib kelishi kerak: *cet homme est médecin / cet homme est médecin eminent*. Shu bilan, birga, ko’pgina to’ldiruvchilardan farqli gaplar, gapning to’g’ri tuzilishiga ta’sir qilmasdan qisqartirilishi mumkin:

Jacques chante un air connu / Jacques chante;

Marie mange un gâteau/ Marie mange, va boshqalar./ Aniqlovchi gap bo'laklarining gapda tushib qolishiga imkon bermaydi: *la maison semble; le garçon devient.*

Boshqa hollarda, faqat ega aniqlovchi bilan gap tuzilishida odatda fe'llarning kichik bir bo'lagini oladi ya'ni *être* fe'lini odatdagidek qo'shimcha *devenir, sembler, paraître, rester, demeurer* fe'llari bilan mos keladigan misollar bilan ifodalaniladi. Bu ajratib ko'rsatilgan fe'llar to'ldiruvchi faoliyatini talab qiladi va bu *être* yordamchi fe'lining *participe passé* formasi bilan bog'liq. Ega va agent to'ldiruvchi bir – biri bilan bog'liq. Ega va aniqlovchi inversiyada bo'ladi, ammo fe'l o'zgarmasdan qoladi:

Monsieur Louis est le caissier / le caissier est Monsieur Louis.

Bundan tashqari gapda predloglar yordamida ham aniqlovchi hosil qilish mumkin. Ular gapda otga aniqlik kiritib keladi va *le complément déterminatif* ya'ni *aniqlovchi to'ldiruvchi* deb ataladi. U gapda *ot + de (à, en) + ot* ko'rinishida namoyon bo'ladi. Fransuz tili nutqida bunday gaplarni juda ko'p uchratish mumkin buni isbotlash uchun biz asarlardan foydalandik.

1. *Les trois hommes s'enfermèrent dans le bureau de Martin.*(TPT. 66)
2. *Sur un signe de Simon, ils s'arrêtèrent.*(TPT. 61)
3. *Martin retira vivement son tablier de jardinier et prit la veste qu'il avait posée sur une chaise.*(TPT. 8)
4. *La voiture des pompiers s'annonçait, puis une patrouille allemande qui arrivait au pas gymnastique.*(TPT. 17)
5. *Là trônait un portrait de Monique.*(TPT. 77)
6. *Il tendit la main à M^{me} Renault.*(TPT. 9)

Fransuz tili grammatikasida va asarlarni tahlil qilishimiz jarayonida shunga amin bo'ldikki, mualliflar asarlarida aniqlovchining barcha turlaridan foydalangan. Asarlarda mualliflar aniqlovchining *le complément déterminatif* ya'ni *aniqlovchili to'ldiruvchi* turidan ko'proq foydalangan. Fransuz tili asarlari juda ham aniqlovchilarga boy, ayniqsa asarlarda aniqlovchilarni har xil ifoda vositalari

yordamida ifodalangani fikrimiz isbotidir. Fransuz tili asarlari boshqa asarlardan ana shu jihatlari bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari aniqlovchinining aniqlovchili to'ldiruvchini mualliflar juda keng gaplar bilan bergan. Asarda aniqlovchi *ot + de + ot* ko'rinishida namoyon bo'ladi.

1. *Luce, maternellement, avait jeté son châle sur les épaules de Pierre: et il se laissait faire, comme un chat, qui juit de la tiédeur de l'étoffe.*(RPL. 38)

2. *Le regard de Pierre interrogeait Luce.*(RPL. 42)

Fransuz tili asarlarida aniqlovchi va uning ifoda vositalari juda yaxshi berilgan. Keltirilgan bu misollar aniqlovchiga to'laligicha misol bo'la oladi. Aniqlovchini ko'rsatib berishda, aniqlovchi ko'plab vositalar yordamida ifodalanib keldi, ya'ni aniqlovchi *sifat, ot, fe'llar, sifatdoshlar, predloglar* yordamida ifodalanib keldi.

Fransiz tilida biz bunday misollarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Ammo aniqlovchining bu aniqlovchili to'ldiruvchili turi gaplarda aniqlovchining boshqa turlariga nisbatan kamroq ishlatilgan. Bunda *ot + de + ot* ko'rinishida quyidagi misolni olishimiz mumkin.

C'était la même futaie de hêtres, les même, grands arbres dans le clair d'étoiles, pareils à des colonnes de Pierre.(MDH. 109)

Bunday aniqlovchili to'ldiruvchili gaplar asarlarda juda oz qo'llanilgan.

2.3. Sifat bilan ifodalangan aniqlovchi

Ma'lumki fransuz tilida va boshqa tillarda ham aniqlovchi asosan sifatlar bilan ifodalaniladi. Biz fransuz tilidagi gaplarni va asarlarni kuzatishimiz jarayonida shunga amin bo'ldikki, aniqlovchilarning asosan sifatlar bilan berilish holatlariga duch keldik, fikrimiz isboti uchun biz *Gao Xingjian* ning *La Montagne de l'Âme* asarida aniqlovchining sifat bilan ifodalangan holatini ko'rib o'tamiz. Muallif bu asarida ko'proq aniqlovchining *l'épithete* ya'ni otning aniqlovchisi

turidan ko'proq foydalangan. Bunda sifatlar gapda *sifat + ot yoki ot + sifat* ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Masalan:

1. *Je me lève et pars à sa suite dans l'escalier où elle ouvre une porte dérobée.* (GXM. 120)
2. *Un vent frais souffle doucement, rafraîchissant et plaisant.* (GXM. 17)
3. *Dans cette pièce sombre, à travers la fenêtre derrière lui, la lumière du soleil paraît particulièrement éclatante, le sol boueux de la cour avenglant.* (GXM. 170)
4. *Tiantai, devant la pagode de reliques datant des Sui, alors que j'examine une inscription lapidaire, j'entends sans le vouloir une conversation.* (GXM. 380)
5. *Je choisis un endroit calme, à l'écart, pour l'inviter à s'asseoir.* (GXM. 376)
6. *Sur la rivière, il fallait prendre un bateau couvert de nattes de bambou et sur terre louer une brouette.* (GXM. 11)

Keltirilgan misollardan ko'rindiki, gaplarda sifatlar o'zining aniqlovchi kelyapti va gaplarda *ot + sifat* ko'rinishida namoyon bo'lyapti. Bu gaplarda o'zining aniqlovchisi bo'lib kelyapti. Muallif asarida aniqlovchining bu turidan juda ko'p foydalangan, fikrimiz isboti sifatida quyidagi misollarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Masalan :

1. *Le pont de Pierre enjambe une large rivière.* (GXM. 17)
2. *S'il rentrait, il pourrait jouir d'un traitement de vieux cadre révolutionnaire, il pourrait reprendre son travail et, enfin, il percevrait une grosse somme, correspondant aux salaires dus depuis de nombreuses années.* (GXM. 379)
3. *Ils pénètrent alors en courant dans une petite rue.* (GXM. 132)

4. *Entre une grosse femme d'un âge certain, suivie d'une vieille femme.*(GXM. 120)

Berilgan bu misollarda aniqlovchi *sifat* + *ot* ko'rinishida berilyapti va ular otning aniqlovchisi vazifasida kelyapti. Gapda sifat otdan oldin kelib uni aniqlab kelyapti.

Fransuz tili nutqida va asarlarida bunday misollar juda ko'p uchraydi. Mualliflar asarlarida aniqlovchining bu turidan juda keng foydalangan.

Bundan tashqari fransuz tilida aniqlovchining boshqa turlaridan ham ko'p foydalanilgan. Masalan sifat va otlar *être* fe'li bilan birga kelsa *eganing aniqlovchisi* ya'ni *l'attribut du sujet* bo'lib keladi. Ular gaplarda *être* + *sifat* ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan:

1. *Sa voix est grave et forte, une belle voix naturelle.* (GXM. 24)
2. *On a dit que les paroles des chansons étaient malsaines et elles ont été remplacées par les citations de Mao.* (GXM. 24)
3. *La nature est étrange.* (GXM. 549)

Bu gaplarda aniqlovchi *être* + *sifat* ko'rinishida namoyon bo'lyapti. Mualliflar asarlarida aniqlovchining eganing aniqlovchisi turidan boshqa aniqlovchining turlariga qaraganda kamroq foydalangan.

Bu asarda aniqlovchining bunday ko'rinishi juda kam uchraydi. Muallif asarida aniqlovchining barcha turidan foydalangan. Faqat aniqlovchining son bilan berilishi, predlogli sifat bilan berilishi, gap bilan berilish asarda uchramaydi. Lekin muallif aniqlovchiga juda ko'p misollar bergan.

Aniqlovchi nafaqat bu asarda balki fransuz tilida yozilgan boshqa mualliflarning asarlarida ham juda ko'p va mazmunli berilgan. Bu ishimda foydalangan asarlarimdan yana biri N.M.Tabatchnikova ning "*Le pere tranquille*" asaridir. Bu asarda ham aniqlovchilar juda ko'p. Muallif asarida aniqlovchining barcha turlaridan foydalangan. U aniqlovchilarni ko'rsatib berishda barcha ifoda vositalaridan foydalanishga harakat qilgan. Masalan aniqlovchining *l'épithète* ya'ni *otning aniqlovchisi* turida aniqlovchilar sifatlar bilan ifodalanib ular otdan

oldin yoki keyin keladi va *sifat + ot yoki ot + sifat* ko'rinishida namayon bo'ladi. Asarda *sifat + ot* ko'rinishidan ko'ra *ot + sifat* ko'rinishi kamroq berilgan. Muallif *ot + sifat* ko'rinishiga kamroq e'tibor bergani uchunmi yoki gaplarda aniqlovchini berishda ko'proq *sifat + otni* talab qilgani uchunmi, *ot + sifat* ko'rinishi kam uchraydi. Unda quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. *En ouvrant lentement la porte vitrée donnant sur le couloir, il regardait à présent sa fille: cet air sérieux, courageux et grave le touchait profondément.* (TPT. 84)

2. *Martin regardait sa montre au cadrau lumineux.* (TPT. 85)

Aniqlovchining *sifat + ot* korinishi asarda juda ham ko'p uchraydi. Muallif asarda otning aniqlovchisi turining bu ko'rinishidan ko'p foydalangan bunda ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin:

1. *Il s'arrêta devant une vieille maison et rangea sa bicyclette le long du trottoir.* (TPT. 30)

2. *M^{me} Martin et Monique s'intéressaient au tissu quelles tâtaient avec des mines d'acheteuses dans un grand magasin.* (TPT. 40)

3. *Ils traversèrent le grenier lentement, pour ne pas heurter les vieux meubles et les malles qui lencombrent.* (TPT. 38)

